Iqtisodiyotni innovatsion isloh qilish sharoitida yer hisobini yuritishning ahamiyati.....	1042
Hojiyev Qo'chqor Mamadiyorovich	
Qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni takomillashtirish.....	1047
Sherqulov Nodir Erkin o'g'li	
Мировой опыт использования денежных и натуральных трансфертов в социальном обеспечении.....	1052
Гулноза Тохировна Самиева	
Davlat xaridlarini amalga oshirish orqali raqobatni rivojlantirish yo'llari.....	1057
Majidov Nizomjon	
Raqamli iqtisodiyot davrida kontent marketingdan foydalanish va uning bosqichlari.....	1064
Tohirjonov Ahmadjon Tohirjon o'g'li, Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna	
Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini takomillashtirish.....	1070
Norqulov Mirsaid Tulqin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish zaruriyati.....	1075
Badalov Jamshid Jamolovich	
Foyda solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budjet tizimidagi ahamiyati.....	1080
Shirinov Sabir Erkinovich	
O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari.....	1084
Anvar Eshmatov	
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlarini.....	1088
Ametova Nasiba Danilovna	
Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	1092
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
Raxmonova Aziza Tolibovna	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
Umarov Elshod G'ulom o'g'li	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
Икромовна Ханифа Одилловна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI MABLAG'LARI VA ULARDAN FOYDALANISH TO'G'RISIDAGI BAJARILISHLARGA OID HISOBOTNI TUZISH VA TAQDIM ETISH TARTIBI



Ne'matov Oybek Ismatullayevich

PhD, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari, ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi keltirilgan.

Kalit so'zlar: Nodavlat notijorat tashkilot (NNT) lari mablag'lari, kirish badali, a'zolik badali, grantlar, subsidiyalari, bajarilishlarga oid hisobot.

Abstract: An order of compiling and submission a report on the resources of non-governmental non-profit organizations and their using are considered in this article.

Key words: resources of non-governmental non-profit organizations (NGOs), entrance fee, membership fee, grants, subsidies, implementation report.

Аннотация: В данной статье приведён порядок составления и предоставления отчёта о средствах негосударственных некоммерческих организаций, об их использовании.

Ключевые слова: средства негосударственных некоммерческих организаций (ННО), вступительный взнос, членский взнос, гранты, субсидии, отчет по выполнению.

KIRISH

Nodavlat notijorat tashkilot (NNT)lari, bir tomondan, boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga o'xshash jihatlariga ega. Bunday o'xshashlik jihatlar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- 1) davlat tomonidan ro'yxatga olinadigan mustaqil yuridik shaxslar bo'lib hisoblanadi;
- 2) boshqa yuridik shaxslar singari tegishli resurslar (mablag'lar)ga egalik qiladi;
- 3) boshqa yuridik shaxslar singari davlat oldida o'zlarining faoliyati, aktivlari, ularni tashkil topish manbalari, faoliyati natijalari to'g'risida statistika, soliq va boshqa tegishli tashkilotlar oldida belgilangan muddatlarda hisobot beruvchilar bo'lib hisoblanadi.
- 4) NNTlar hisob xizmati xodimlari zimmasiga statistik va moliyaviy hisobotlarni to'g'ri, aniq va o'z vaqtida tuzish hamda tegishli organlarga taqdim etishdek vazifalar yuklatiladi.

Chunonchi, a'zo bo'lish badallari, kirish badallari, ustav maqsadlarini bajarish uchun olingan homiylik yordami notijorat tashkilotining daromadi hisoblanmaydi va ularga soliq solinmaydi. Notijorat tashkilotlari uchun Soliq kodeksining 318-moddasida ko'rsatilgan boshqa daromadlarga ham (qo'shma faoliyatda ishtirok etishdan daromadlar, dividendlar va foizlar, royalti bundan mustasno) soliq solinmaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

NNTlarining mablag'lari holati, harakati, ularni hisobotlarda aks ettirish masalalari bilan bog'liq myamlarning ba'zi nazariy, tashkiliy va metodologik jihatlarini xorijlik iqtisodchi olimlardan L. V. Egorova, A. V. Brovkin, V. I. Podolskiy, mamlakatimiz olimlaridan K. B. Axmedjanov, R. D. Do'smurov, N. A. Ibragimov, I. N. Ismanov, A. A. Karimov, N. F. Karimov, D. K. Kudbiyev, M.B.Kalonov, S. U. Mehmonov, M. Q. Pardayev, A. X. Pardayev, N. K. Rizayev, A. J. Tuychiyev, M. M. Tylaxodjayeva, I. N. Qo'ziyev, K. R. Hotamov, M. S. Xojiyev va boshqa olimlar ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. Biroq, NNTlari mablag'lari, ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibini takomillashtirish masalasi o'rganilmagan.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

NNTlari mablag'lari, ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi ochiqqlangan hamda hisobot shakli tavsiya etilgan. Ushbu tavsiya etilayotgan hisobot shakli xorijiy tajribalarni tadqiq etish asosida, guruhlash, taqqoslash, baholash hamda abstrakt-mantiqiy fikrlash kabi usullar yordamida ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Notijorat tashkilotida hisobot davrida mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan daromadlardan boshqa tushumlar bo'lmasa ham, uning uchun ushbu daromadlar boshqa daromadlar hisoblanadi va ularga foyda solig'i solinmaydi.

Yuqorida ko'rsatilganidek, daromadlarning umumiy summasida mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan tushumning ulushi hajmidan qat'iy nazar notijorat tashkilotlarining boshqa daromadlari deb qaraladi.

Agar NNT pulli asosda xizmat ko'rsatsa yoki ish bajarsa, ulardan olingan daromadlarga ham qonunchilikka muvofiq soliq solinadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, nodavlat notijorat tashkilotlarining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi ularda muayyan soliq oqibatlariga olib keladi.

NNTlarning, bir tomondan, boshqa yuridik shaxslarga o'xshashlik jihatlari, shuningdek ularning, ikkinchi tomondan, o'ziga xos xususiyatlarga ega subyektlar ekanligi ular faoliyati, mablag'lari va ularni tashkil topish manbalari to'g'risida axborot berishning asosiy vositasi bo'lgan moliyaviy hisobotga doir qator dolzarb muammolarni hal etishni zarurat etib qo'ymoqda. Quyida ushbu dolzarb muammolarning ayrimlariga va ularni hal etish yo'llariga qisqacha to'xtalamiz.

Ma'lumki, respublikamizda moliyaviy hisobot shakllari qat'iy reglamentlashtirilgan, ya'ni normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan. Bu normativ-huquqiy hujjatlar qatorida, eng avvalo, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" Qonunni keltirib o'tish joiz. Ushbu qonunning 22-moddasiga muvofiq, "moliyaviy hisobot buxgalteriya hisobi subyektlarining hisobot sanasidagi moliyaviy holati, hisobot davridagi faoliyatining moliyaviy natijasi va pul mablag'larining harakati to'g'risidagi tizimlashtirilgan axborotdan iboratdir"¹.

Moliyaviy hisobot shakllarini tartibga solib turuvchi yana bir me'yoriy hujjat O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2003-yil 24-yanvarda 1209-raqam ostida davlat ro'yxatidan o'tgan "Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to'ldirish bo'yicha Qoidalar"² hisoblanadi.

Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to'ldirish bo'yicha Qoidalarda ushbu har bir hisobot shakllarining ma'lumotlari qanday tartibda shakllantirilishi va to'ldirilishi batafsil keltirib o'tilgan.

Barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar singari NNTlari ham faoliyati va uning natijalari, aktivlari, ularning tashkil topish manbalari (xususiy kapital va majburiyatlar) to'g'risidagi ma'lumotlarni moliyaviy hisobotlarda aks ettiradilar va tegishli davlat organlariga hamda auditorlik tashkilotlariga taqdim qiladilar.

Bugungi kunda respublikamizda aksariyat NNTlar xodimlarining soni kamligi tufayli kichik biznes subyektlari singari normativ-huquqiy hujjatlarda keltirilgan moliyaviy hisobot shakllaridan faqatgina buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlarni soliq organlariga taqdim qilib kelmoqdalar. Biroq, nodavlat notijorat tashkilotlariga umuman tatbiq etilmaydigan yangi Tasniflagich (Vazirlar Mahkamasining 24.08.2016-yildagi 275-son qaroriga 1-ilova) joriy etilishi bilan NNTlar kichik xo'jalik yurituvchi subyektlar sifatida emas, balki bu maqomga kirmaydigan va umumbelgilangan soliqlarni to'lovchilar sifatida moliyaviy hisobotning barcha shakllarini tuzishlari hamda tegishli organlarga taqdim etishlari lozim.

NNTlar boshqa subyektlar singari buxgalteriya balansini taqdim etish orqali unda o'zlarining aktivlari va passivlarining ma'lum bir sanaga holatini aks ettirishlari kerak.

Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobotni barcha tadbirkorlik faoliyatini olib boruvchi NNTlari tuzishlari, unda hisobot davrida olingan daromadlar, qilingan xarajalar, foyda va zarar ko'rsatkichlari aks ettirilishi lozim³. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmaydigan NNTlar uchun ushbu hisobot moddalari to'lg'azilmasdan taqdim etilishi maqsadga muvofiqdir.

Bizningcha, NNTlar bugungi kunda moliyaviy hisoboti tarkibida buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot shakllaridan tashqari quyidagi hisobot shakllarini ham tuzishlari va tegishli organlarga taqdim etishlari maqsadga muvofiq.

Maqsadli tushumlarning kelib tushishi va ishlatilishi to'g'risida bajarilishlarga oid hisobot (ustav vazifalarini bajarish bilan bog'liq maqsadli tushumlar harakati uchun mo'ljallangan);

2. Pul oqimlari to'g'risida hisobot;

1 O'zbekiston Respublikasi qonuni "Buxgalteriya hisobi to'g'risida", 2016-yil 13-aprel, № O'RQ-404.

2 "Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to'ldirish bo'yicha qoidalar", <http://www.lex.uz>

3 Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.



3. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot.

Quyida ushbu hisobot shakllarining maqsadi, formatlari va ularni tuzish tartiblariga qisqacha to'xtalamiz.

Bizningcha, maqsadli tushumlar kirimini ifodalovchi har bir turi (grantlar, subsidiyalar, dotatsiyalar, a'zolik va kirish badallari, soliq imtiyozlari, xayriya, homiylik, gumanitar yordam va boshqalar) bo'yicha quyidagi yaxlit shaklda tuzish ko'proq samara beradi (1-jadval).

1-jadval: Maqsadli tushumlar kirimi reestri (maqsadli tushum turlari bo'yicha)⁴

№	Hujjat		Kimdan olingan	Nima olingan	Summa	Berilgan yozuv	
	№	Sana				Debet	Kredit
1	125-15	01.05.2020	A'zolardan	Kirish badali	8400500	5110	8830 (8840)
2	148-85	03.05.2020	A'zolardan	A'zolik badali	45350000	5110	8850
Jami summa					53750500		

Ushbu jami summasi NNTga kirim qilingan jami maqsadli tushumlar summasini ifodalaydi. Bu summani NNTning hisobotida ko'rsatilgan jami kelib tushgan maqsadli tushumlar summasi bilan taqqoslash uni hisobotda to'g'ri yoki noto'g'ri aks ettirilganligini aniqlash imkonini beradi.

Yuqorida shakl va mazmuni keltirilgan reestr ma'lumotlarni maqsadli tushumlar turlari kesimida NNTlar Bosh kitobida oyma-oy to'g'ri aks ettirilib boradi (2-jadval).

2-jadval: Maqsadli tushumlarning turlari bo'yicha Bosh kitobda aks ettirilish holati⁵

№	Maqsadli tushum sifatida olingan aktivlar	Debetlanadigan balans schyoti	Kredit 8800 schyot (oylar kesimida)												
			1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	Jami
1	Pul mablag'lari	5010													Σ
		5110													Σ
		5530													Σ
		5210													Σ
2	Asosiy vositalar	0100													Σ
3	Nomoddiy aktivlar	0400													Σ
4	Jihozlar	0700													Σ
5	Kapital qurilish obyektlari	0800													Σ
6	Materiallar	1000													Σ
7	Boquvdagi mollar	1100													Σ
8	Tovarlar	2900													Σ
	Jami		Σ	Σ	Σ	Σ	Σ	Σ	Σ	Σ	Σ	Σ	Σ	Σ	Σ

Ushbu aks ettirilgan summa NNTga oyma-oy kirim qilingan maqsadli tushumlarning alohida turi summasini, oxirgi ustundagi summa esa hisobot yilida kelib tushgan jami shu turdagi maqsadli tushum summasini ifodalaydi. Chunonchi, ishchi hujjatning 1-tartib raqamining birinchi satrida Debet 5010 Kredit 8800 yozuvida ko'rsatilgan summa bevosita NNT kassasiga naqd pul bilan kirim qilingan maqsadli tushumni, 2-tartib raqamida Debet 0100 Kredit 8800 yozuvida ko'rsatilgan summa esa asosiy vositalar ko'rinishida olingan maqsadli tushumni bildiradi. Buxgalteriya hisobi hujjatining har oy uchun ochilgan ustunchada ko'rsatilgan summalar shu hisobot oyida kirim qilingan maqsadli tushumlarning alohida turi hamda barcha maqsadli tushumlarning jami summasini ifodalaydi.

⁴ Samarqand Qizil Yarim Oy tashkilotining 2021-yil ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

⁵ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.



Maqsadli tushumlarning kelib tushishi va ishlatilishi to'g'risida hisobot. NNTlar ustav vazifalarini bajarilishi asosan maqsadli tushumlar harakati (kiritimi va chiqimi) bilan bog'liq. NNTlarda aynan maqsadli tushumlar qanday manbalar hisobidan shakllanganligi va ularning maqsadli ishlatilishi to'g'risida axborotlarni o'zida jamlovchi hisobot shakliga zarurat mavjud. Ushbu zaruratdan kelib chiqib, barcha NNTlar uchun maxsus "Maqsadli tushumlarning kelib tushishi va ishlatilishi to'g'risida bajarilishlarga oid hisobot" shaklini amaliyotga joriy qilish maqsadli hisoblanadi. Ushbu hisobotni quyidagi shakl va mazmunda "bajarilishlar-smeta-chetlanishlar" tuzish tavsiya etiladi (3-jadval):

3-jadval: "Bajarilishlar-smeta-chetlanishlar" yaxlit zanjiri asosida maqsadli tushumlarning bajarilishiga oid hisobot (ming so'm)⁶

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kod	Hisobot davri boshidagi qoldiq	Kelib tushishi	Mablag'larning ishlatilishi				Hisobot davri oxiridagi qoldig'i
				Dastur, loyiha va tadbirlarga	Boshqaruv xarajatlari qoplashga	Xususiy kapitalga	Jami sarflar	
1	2	3	4	5	6	7	8	9
Maqsadli tushumlar (011+012+013+014+015+016+017+18 satrlar):	010	131150	780225	511885	193800	102390	808075	103300
Kirish badali	011		48590			48590	48590	
A'zolik badali	012	25600	120300	50300	60500	20400	131200	14700
Xayr-ehsonlar, yordamlar, mehr-muruvvat va donorlik mablag'lari	013	20300	80435	90485			90485	10250
Grantlar	014		285900	190200	85300	10400	285900	
Subsidiyalar	015							
Boshqalar	016							
Tadbirkorlik faoliyatidan olingan foydasi	017	85250	245000	180900	48000	23000	251900	78350

Mazkur hisobotni tuzishga asos bo'lib NNTlar bosh kitobida ochiladigan 8800 "Maqsadli tushumlar" schyoti tizimida ularning alohida turlariga ochiladigan schyotlar ma'lumotlari, shuningdek ushbu schyotlar bo'yicha yuritiladigan analitik hisob registrlari va guvohlik beruvchi boshlang'ich hujjatlar hisoblanadi.

"Bajarilishlar-smeta-chetlanishlar" yaxlit zanjiri asosida erishilgan natijalar "bajarilishlar" ko'rinishida hisobotlarda o'z aksini topadi. Bajarilishlarga oid ma'lumotlar rejalar, smetalar va boshqa bazis ko'rsatkichlarga solishtiriladi. Qaytarma bog'liqlik (feedback) asosida korxonaning rejalariga, smetalariga, bdyujetlariga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Natijada, ushbu yaxlit zanjir asosida buxgalterlar va auditorlar yangi hisobot davrida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlaydi, chetlanishlar sabablari ochib beriladi. Haqiqiy erishilgan natijalarning smetalardan chetlanishlari audit keyingi paragrafda yoritilgan.

Pul oqimlari to'g'risida hisobot. Ushbu umumqabul qilingan moliyaviy hisobot shakli bugungi kunda NNTlar tomonidan tuzilmasdan va tegishli organlarga taqdim qilinmasdan kelinmoqda. Vaholanki, NNT ustav vazifalarini bajarishda maqsadli tushumlar bilan bog'liq pul mablag'larining kelib tushishi va ularning maqsadli sarflanishi to'g'risidagi ma'lumotlarni ushbu hisobot shaklida aks ettirish, bizningcha maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lar edi.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot. Ushbu umumqabul qilingan moliyaviy hisobot shakli ham bugungi kunda NNTlar tomonidan tuzilmasdan va tegishli organlarga taqdim qilinmasdan qolmoqda. Vaholanki, NNTlar ham mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida o'zlarining xususiy mablag'lariga egadir. Izlanishlar ko'plab NNTlar balansining alohida moddalarida ularga tegishli bo'lgan ustav kapitali, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda, maqsadli tushumlar hamda bo'lg'usi xarajat va to'lovlar uchun rezervlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Xusu-

⁶ "Mahalla" xayriya jamoat fondining Samarqand viloyati bo'limining 2022-yil ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



siy kapitalning ushbu elementlari holati va harakatidagi o'zgarishlarni ifodalovchi hisobotni alohida tuzilishi, fikrimizcha, foydadan xoli bo'lmaydi. Chunki, bunday hisobotning mavjudligi va tahlili NNTlarda xususiy kapitalni yanada ko'paytirish, undan samarali foydalanishga oid boshqaruv qarorlarini qabul qilishga imkon beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bizningcha, yuqoridagi taklif va tavsiyalarimiz NNTlarda moliyaviy hisobotni yanada takomillashtirishga, uning ham ichki, ham tashqi axborot foydalanuvchilar uchun nafligini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda NNTlar amaliyotida hisob va hisobot yuzasidan mavjud muammo va ularning yechimlari topiladi. Shuningdek, NNTlar amaliyotiga tavsiya etilayotgan moliyaviy hisobot shakllari auditorlik tekshiruvlari vaqtini kamayishiga ham sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi . 1999-yil 14-aprel. <https://lex.uz/docs/11360>
2. 10-son BHMS Moliya vazirligi tomonidan 19.10.1998-y. 52-son bilan tasdiqlangan (AV tomonidan 03.12.1998 y. 562-son bilan ro'yxatga olingan).
3. 20-son BHXS "Davlat grantlarini hisobga olish va davlat yordami to'g'risida ma'lumotlarni ochib berish". <https://finotchet.ru/articles/142/>
4. 21-son BHMS Moliya vazirining 09.09.2002-y 103-son buyrug'i bilan tasdiqlangan (AV tomonidan 23.10.2002-y. 1181-son bilan ro'yxatga olingan).
5. Егорова Л.В. Учет и аудит в некоммерческих организациях: теория, методология и практика. Автореферат дисс. д.э.н. Ростов-на-Дону, 2008.
6. Бровкин А.В. Концепция формирования финансовой отчетности негосударственных некоммерческих организаций. Автореферат дисс. к.э.н. М.: МГУ, 2010.
7. Хojiyev M.S. Nodavlat notijorat tashkilotlarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish. i.f.d (PhD) diss. avtoref. – T.: 2018-yil.
8. Юлдашев Б.Т., Индина И.А., Хайдаров Ш.У., Индина Е.А. Негосударственные некоммерческие организации в узбекистане: правовое регулирование, экономические основы деятельности, бухгалтерский учет и налогообложение в свете последних изменений законодательства. Методическое пособие. - Т.: Yurist-media markazi; 2010. <https://www.osce.org/files/f/documents/3/7/106791.pdf>
9. <http://www.ngo.uz>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.